

ABDULŒOZI BAHODIRXONNING “SHAJARAI TURK” ASARINING TARIXIY AHAMIYATI.

Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti 403-guruh talabasi

Suyunova Zamira.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarining tarixiy, adabiy va ilmiy ahamiyati keng yoritib berilgan. Asarda XVII asr Xiva xonligi tarixiga oid siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotga doir ma’lumotlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, turkiy qabilalarning kelib chiqishi, urug‘lar tarixi, ularning nomlanishi, yashash hududlari va ularning ajdodlari haqidagi rivoyatlar bu asarning noyob tarixiy manba ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Abulg‘ozi tomonidan ishlatilgan boshqa tarixiy manbalar, jumladan “Boburnoma”, “Zafarnoma”, “Jome’ ut-tavorix” kabi asarlar bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Asar faqat tarixiy manba sifatida emas, balki adabiy va etnografik ahamiyatga ega bo‘lgan yirik asar sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Abulg‘ozi Bahodirxon, Shajarai turk, tarixiy manba, Xiva xonligi, turkiy qabilalar, urug‘lar tarixi, etnografiya, adabiy meros, XVII asr, O‘rta Osiyo tarixi.

Turkiy xalqlarning boy va rang-barang tarixini o‘rganishda yozma manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XVII asrda yashab ijod qilgan Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan yozilgan Shajarai turk asari o‘z davrining nodir tarixiy yodgorligi sifatida ajralib turadi. Ushbu asar orqali nafaqat Xiva xonligining siyosiy hayoti, balki turkiy qabilalarning kelib chiqishi, ularning ijtimoiy tuzilmasi, urf-odatlar, ajdodiy nasabi va yashash joylari haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin. Abulg‘ozining chuqur bilim va kuzatuvlarga asoslangan bu asari tarixiy faktlar bilan birga etnografik tafsilotlar, rivoyatlar va xalq og‘zaki ijodi bilan boyitilgan. Shajarai turk nafaqat tarixiy manba, balki badiiy uslubda yozilgan adabiy asar sifatida ham qimmatlidir. Uning tili, uslubi va mazmuni bugungi tadqiqotchilar uchun bebaho ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu ishda asarning mazmun-mohiyati, tarixiy ahamiyati hamda turkiy xalqlar tarixini yoritishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Shajarayi Turk“, „Shajarai turk va mo‘g‘ul“ (tarjimasi: „Turkiy xalklar va mo‘g‘ullar shajarasi“) – tarixiy asar, muallifi Abulg‘oziy Bahodirxon. Eski o‘zbek tilida yozilgan. „Shajarayi turk“ XIII—XVII-asrlardagi mo‘g‘ul va turk hukmdorlari haqidagi ma’lumotlarni, xususan, Markaziy Osiyo xonliklari, jumladan, Xiva xonligining muallif yashagan davrgacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga olgan. „Shajarayi turk“ Abulg‘oziy Bahrdirxonning o‘limi tufayli nihoyasiga yetkazilmay qolgan bo‘lsada, uning o‘g‘li Anusha Muhammadxon (1663—1687) topshirig‘iga muvofiq, urganchlik tarixchi Maxmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tomonidan ba’zi ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan. „Shajarayi turk“ning yozilish sababi muallif tomonidan quyidagicha izohlangan: „Ammo bizning otaaqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Abdullaxon II) otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur bo‘ldi (va) ul sababdin o‘zimiz aytduk“. Asar mo‘‘jaz muqaddima va 9 bobdan tashkil topgan. Shajarayi turk“ning 7, 8 va 9-boblari (1644-yilgacha kechgan voqealar) Abulg‘ozixon tomonidan yozilgan. 1, 6-boblar va 9-bobning davomi (1644—1664) Mahmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tarafidan bitilgan. „Shajarayi turk“da ko‘plab etnografik hamda Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doir ma’lumotlar bor. Asarning bizgacha yettidan ortiq qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan, ular Toshkent, Ashxobod, Sankt-Peterburgdagi fondlarda saqlanmoqda¹. „Shajarayi turk“ omma tushunadigan tilda va ommabop usulda yozilganligi bilan ajralib turadi. Hodisalar bayonidagi ixchamlik, ifodaning izchilligi, voqealarni latifa va rivoyat uslubida sodda, ravon tasvirlash asarning muhim tomoni hisoblanadi. Manba grammatik qurilishi, lug‘at tarkibi nuqtai nazaridan xalq so‘zlashuv tiliga yaqin turadi. Abulg‘ozixon „Shajarayi turk“ni yozishda ilgari bitilgan bir nechta tarixiy asarlar, xususan, Rashiduddin „Jome‘ uttavorix“, Sharafuddin Ali Yazdiyning

¹ G‘afforov Sh.S., Narmanov F.A. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Uslubiy ko‘rsatma. Samarqand: SamDU nashr., 2013. – 75 b.

„Muqaddimayi Zafarnoma“sidan kerakli o‘rinlarda unumli foydalangan. Mazkur asar rus, fransuz va nemis tillarida nashr etilgan. Abulg‘ozi Bahodirxon (Urganch – Xiva) – Xiva xoni (1643—1664), shayboniylar sulolasidan, tarixchi va tabib. Abulg‘ozi Bahodirxonning og‘alari Habash sulton va Elbars sulton otalari Arab Muhammadxonni yengib, uni Qum qal’asiga qamadilar. Otasining tarafdorlari bo‘lgan katta og‘asi Asfandiyor Eronga, Abulg‘ozi Bahodirxon esa Buxoroga Imomqulixon huzuriga qochdi. 1623-yilda akasi Asfandiyorxon Xiva taxtini egallagach, Abulg‘ozi Bahodirxon Urganchga hokim qilib tayinlandi. Lekin Asfandiyorxon bilan o‘rtalarida nizo chiqib, Abulg‘ozi Bahodirxon 1627-yilda qozoq xoni Eshimxon huzuriga qochdi; keyin ikki yil Toshkent hokimi Tursunxon bilan birga bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay, turkmanlarning taklifiga binoan u yana Xorazmga qaytdi. Asfandiyor uni Xiva hokimi qilib tayinlashga majbur bo‘ldi. 1629-yilda turkmanlar Eronga tobe bo‘lgan Niso va Durunni bosib oldilar. Asfandiyorxon Eron bilan munosabatlarning tamoman jiddiylashib ketishidan cho‘chib, aybni Abulg‘ozi Bahodirxonga to‘nkadi va uni 1630-yil qishida Eron podshohi huzuriga garov tariqasida yubordi. Abulg‘ozi Bahodirxon shu tariqa 10 yil Eronda, Isfahon yaqinidagi Taborak qal’asida qamoqda yashadi. 1639-yilning yozida u tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo‘ldi². Abulg‘ozi Bahodirxon bir necha yil taxt uchun kurash olib borib, nihoyat 1644-yil Xiva taxtiga o‘tirdi. Abulg‘ozi Bahodirxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash olib bordi. U 1663-yilda hokimiyatni o‘g‘li Anushaxonga topshirdi. Abulg‘ozi Bahodirxon „Shajarayi turk“ nomli asarini qaysi vaqtda yozilganligini va boblarini ko‘rsatib o‘tadi. "Tarix hijriy ming taqi yetmish to‘rt (1074/1663 yoki 1664-yil) erdikim, biz (Abdulg‘ozixon q.m.) bu kitobni ibtido qilduq va taqi „Shajarayi turk“ teb ot qo‘ydiq. Taqi to‘qqiz bob qilduq". Abulg‘ozi Bahodirxon „Shajarayi turk“ asarining o‘zida keltirilgan ba’zi ma’lumotlarga qaraganda oxirigacha yozib tamomlashga ulgurmagan. Uning ma’lum qismi Abulg‘ozi Bahodirxon vafotidan so‘ng Mahmudiy ibn Muhammad

² Allaeva N.A. Abulg‘ozixon haqida yana bir so‘z. // Imom al-Buxoriy saboqlari. – 2006. – №3.

Zamon Urganjiy tomonidan yozib tamomlangan³. Taniqli venger olimi H.Vamberi: «Abulgoziy oz hayotining barcha qirralari bilan birga bizga Boburni eslatadi», deb baho bergan edi. Agar shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur XV asrda eski ozbek-chigatoy tilida olamshumul ahamiyatga ega «Boburnoma» asarini yaratib, ozbek xalqi va uning adabiy tili taraqqiyotiga beqiyos hissa qoshgan bolsa, Abulgozi XVII asrda turkiy tilidagi tarix fanining yorgin uylduzi bolib qoldi. Uning bu boradigan xizmati markazlashgan davlat tuzish kabi buuykdir. Abulgozixon murakkab siyosiy-ijtimoiy rivojlanish jarayonida, qaltis vaziyatda, shiddatli kurashlar oqibatida Xiva taxtiga otirdi. U davlat boshligi sifatida feodal siyosiy tarqoqlikni tugatish, markazlashgan davlat hokimiyatini tuzish va uni mustahkamlash, mamlakat mustaqilligini taminlash uchun kurash olib bordi. «Shajarai turk» 1663-1664 yillarda yozilgan. Asarning yozilishi sabablari to'g'risida muallifining o'zi quyidagilarni yozadi: Ammo bizning at-oqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevafoligi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayriliq on yerdin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif etib bitirtirdimadik. Hech kimda mushkuli topmaduk, zarur bo'ldi (va) ul sababdan o'zimiz ataydik. Turkning masali turur: «O'ksiz o'z kindigin o'zi kesar» Tegan." «Shajarai turk» Abulg'oziy Bahodirxon ijodidagina emas, balki XVI-XVII asr o'zbek madaniyati tarixida ham alohida o'rin tutgan memuar asardir. Zero bu asarni bir qator tarixchilar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar Zahiriddin Muhammad Boburning memuar asari «Boburnoma» qatoriga qo'yishlari ham bejiz emas. Vengriyalik sharqshunos olim Herman Vamberi Abulg'oziyning ilmiy salohiyati va yuksak iste'dodiga baho berib shunday yozgan edi: «Abulg'oziy Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushirar... Jahon uning «Shajarai turk» asari uchun undan minnatdordir»⁴. Abulg'oziy Bahodirxonning tarixiy asarlari XIX asrdan boshlab rus va g'arbiy Yevropa tarixchilari, etnograflari va tilshunoslarining

³ Abdullaeva M.D. «Boburnoma» va «Shajara-i turk»ning qiyosiy tipologik tahlili. // Hozirgi davr til va adabiyoti masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand: SamDU nashri, 2001. – B. 33–38.

⁴ . Abdullaeva M.D. Bobur va Abulg'oziy. // Muloqot. Toshkent, 2003. – B. 33–34.

diqqatini jalb etganini bu katta madaniy yodgorliklarning tarixiy va ilmiy ahamiyatining jahonga ilm-fani zukkolari tomonidan e'tirof etilishi deb baholamoq joiz. "Shajarai turk" Qozon shahrida 1825 yilda Rumyantsev, 1854 yilda Sablukov, 1871 yilda esa P.I.Demezov tomonidan nashr etilgan. P.N.Demezov bu asarni 1851 yildayoq⁵. Ma'lum bo'lsinki, Abulg'ozixon jannatmakon bu kitobni tasnif qilib yarimga yetkanda xasta bo'ldilar. Ul vaqtda o'g'ullariga vasiyat qilib tururlar kim, bu kitobni nomatomom qo'ymang, itmomiq'a sa'y qilg'il. Ul sababdin Abul Muzaffar val Mansur Anushaxon ibn Abulg'ozixon amrimcha bu kitobni bu bandai beiboaz va kamini beistito'atki Mahmudiy ibn Mulla Muhammad Zamon Urganchiy bo'lib amrimni bajarg'ali itmomiq'a etkur, deb hukm qildilar. Agarchi banda bu amrni itmomiq'a sa'y va saviyam yetkandek bo'lsa, bu ham bu hodisai nahovatki, - ma'zurun turur. ammo muqarrari va amali bo'lib bu shahanshoi oliy joh hukmi bilan bilg'animiz loyiq bu kitobning itmomiq'a tavajjuh qildim"⁶. Abulg'ozining «Shajarai tarokima», «Shajarai turk» asarlari yuzasidan A. N. Kononov ilmiy tekshirish ishlari olib bordi. Rus tilida ularning tanqidiy matnlarini tayyorladi va 1958 yilda «Shajarai tarokima»ning tanqidiy matnini nashr ettirdi. Abulg'oz Bahodirxon asarlarini omma tushunadigan tilda va ommabop uslubda yozishga alohida e'tibor berdi. Abulg'oz o'zining tarixiy asarlari boshqa tarixchilarning asarlaridan til jihatidan farqli ekanligini takidlab, quyidagilarni yozadi: „Barcha bilingkim, bizdin burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lug'atlarni qoshub tururlar va turkiyni ham saj' qilib tururlar, o'zlarining hunarlari va ustzlarini hakim, bu kitobni oqug'uchi va tinglag'uchi albatta, turk bolg'usi turur. Bas, tyrklarga turkana aytmaq, kerak, ta ularning barchasi fahmi qilg'aylar". Abulg'oz asar yozayotganda o'z oldiga „andoq aytmoq kerakkim, yaxshi va yomon barchalari bilib, ko'ngullariga ma'qul bo'lg'ay" degan printsipni qo'ydi. „Shajarai turk" asarini ham xuddi shu printsipga amal qilgan holda yozdi. "Shajarai turk" asarining tarixiy

⁵ Matyakubova M. XVI asrda Xiva xonligi. Ma'rifat yog'dusi. – Urganch, 2007.

⁶ Agzamova G.A. Xivaning xonlik poytaxtiga aylanishiga doir ayrim ma'lumotlar. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1997. – №6–7. – B. 84–87.

ahamiyati shundaki, u orqali biz Xorazm vohasining ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, turkiy qabilalarning ichki tuzilmasi, urf-odatlar, etnik tarkibi va migratsiya jarayonlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Abulg'ozini o'z asarida boshqa tarixiy manbalarni, jumladan "Boburnoma", "Jome' ut-tavorix", "Zafarnoma" va boshqa muhim asarlarni o'rgangan va ulardan foydalangan holda o'z tarixiy qarashlarini boyitgan. Bundan tashqari, Shajarai turk asari Markaziy Osiyoda tarixiy tafakkur rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri sifatida ham baholanadi. Asar muallifining tarixga, nasabnomaga va xalq og'zaki tarixiga bo'lgan e'tibori uni nafaqat tarixiy manba, balki etnografik, lingvistik va adabiy jihatdan ham noyob yodgorlik darajasiga ko'targan. Shu sababli, Shajarai turk bugungi kunda ham turkiy xalqlar tarixini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda⁷.

Xulosa qilib aytganda, Abulg'ozini Bahodirxonning Shajarai turk asari nafaqat o'z davrining tarixiy voqealarini yorituvchi manba, balki turkiy xalqlarning ildizlariga, nasab-nasablariga, ijtimoiy tuzilmasiga oid qimmatli bilimlarni jamlagan noyob asardir. Ushbu asar orqali turkiy qabilalarning tarqalishi, ularning o'zaro munosabatlari, urf-odatlar va siyosiy tuzilmalari haqida batafsil ma'lumotlar olish mumkin. Asarning o'ziga xosligi shundaki, u tarixiy haqiqat bilan og'zaki rivoyatlarni uyg'unlashtirib, o'quvchiga chuqur tarixiy tafakkur bilan qarash imkonini beradi. Shuningdek, Abulg'ozining tarixiy manbalarga tayangan holda mustaqil tahlil yuritishi, uni nafaqat tarixchi, balki yozuvchi, davlat arbobi sifatida ham ko'rsatadi. Bugungi kunda Shajarai turk asari turkiy xalqlar tarixini o'rganishda, ilmiy tadqiqotlarda, shuningdek, milliy o'zlikni anglashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bu asar o'zbek tarixshunosligi va adabiyotining bebaho meroslaridan biri sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'afforov Sh.S., Narmanov F.A. O'zbek davlatchiligi tarixi. Uslubiy ko'rsatma. Samarqand: SamDU nashr., 2013. – 75 b.
2. Abdullaeva M.D. Bobur va Abulg'ozini. // Muloqot. Toshkent, 2003. – B. 33–34.

⁷. G'ulomov Ya. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent, 1959

3. G‘ulomov Ya. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Toshkent, 1959.
4. Abdullaeva M.D. “Boburnoma” va “Shajara-i turk”ning qiyosiy tipologik tahlili. // Hozirgi davr til va adabiyoti masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand: SamDU nashri, 2001. – B. 33–38.
5. Agzamova G.A. Xivaning xonlik poytaxtiga aylanishiga doir ayrim ma’lumotlar. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1997. – №6–7. – B. 84–87.
6. Allaeva N.A. Abulg‘ozixon haqida yana bir so‘z. // Imom al-Buxoriy saboqlari. – 2006. – №3.
7. Matyakubova M. XVI asrda Xiva xonligi. Ma’rifat yog‘dusi. – Urganch, 2007.